



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING SAVODXONLIGINI
OSHIRISHDA IQTISODIY MASALALARNING AHAMIYATI

Ismatova Yulduz G'ulomjon qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-bosqich talabasi

yulduzismatova218@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini oshirishda iqtisodiy masalalarning ahamiyati to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: iqtisod, statistika, moliyaviy savodxonlik, tanqidiy fikrlash, tahliliy ko'nikmalar, tejamkorlik, jamg'arma.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение экономических вопросов в повышении грамотности учащихся начальных классов.

Ключевые слова: экономика, статистика, финансовая грамотность, критическое мышление, аналитические способности, бережливость, сбережения.

Abstract. This article discusses the importance of economic issues in improving the literacy of elementary school students.

Keywords: economics, statistics, financial literacy, critical thinking, analytical skills, thrift, savings.

Bugungi kunda insonlar qarorlarni talab qiladigan iqtisodiy muammolarga duch kelishadi, ularning oqibatlari, albatta, o'zlarining va boshqalarning hayotiga ta'sir qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun iqtisodiy tushunchalarni anglash zamonaviy dunyoning murakkabliklarida harakat qilish uchun asosdir. Bolalar uchun iqtisod moliyaviy savodxonlik, tanqidiy fikrlash, tahliliy ko'nikmalar va qarorlar qabul qilish kabi hayotiy ko'nikmalarni beradi. O'quvchilar bizning iqtisodiyotimizdagi muvaffaqiyatga hissa qo'shadigan ko'nikmalar, bilim, tajriba va shaxsiy xususiyatlarni qanchalik ko'p tushunsa va hisobga olsa, inson kapitaliga doimiy sarmoya kiritish ularga qanchalik yordam berishini anglashlari ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi.

Iqtisodiy-statistik mazmundagi masala deb, ma'lum bir iqtisodiy yoki statistik tushunchani yoki uni yoritib beruvchi axborotni o'z ichiga olgan masalaga aytiladi. Boshlang'ich matematika kursida o'rganilishi mumkin bo'lgan eng sodda iqtisodiy tushunchalar quyidagilar: tejamkorlik, ish unumi, mahsulotning narxi, bahosi, sifati, foyda, iqtisod kabilar bo'lib, statistikaga oid dastlabki tushunchalar: kuzatuv va ma'lumot to'plash, to'plangan ma'lumotlarni tartiblash, variatsion qator, o'rta arifmetik qiymat, jadval va diagrammalardan iborat. Bunday mazmundagi masalalarni boshlang'ich sinf matematika darsliklarida uchratish mumkin, lekin ularning tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytirish va o'quvchilarning iqtisodiy ongini shakllantirishga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy tarbiyaning muhim vazifalardan biri o'quvchilarni tejamkorlikka o'rgatishdir.



Atrofimizdagi barcha predmetlar: jonli va jonsiz tabiat, uy-ro'zg'or buyumlari, maktab jihozlari, shaxsiy buyumlar va boshqalarni avaylab-asrash, buzmaslik, sindirmaslik, yirtmaslik, atrof-muhitni ozoda saqlash, ehtiyotlik bilan munosabatda bo'lish kerakligini bolalar ongiga singdirib borish kerak. Bu vazifa matematika darslarida iqtisodiy-statistik mazmundagi masalalarni yechish orqali amalga oshiriladi. [5]

Boshlang'ich matematika kursining vazifasi maktab oldiga qo'yilgan "o'quvchilarga fan asoslaridan puxta bilim berishda yangi texnologiyadan foydalanish, ularga hozirgi zamon ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarini berish, kasb hunarga qiziqtirish, kasblarni ongli tanlashga o'rgatish" kabi vazifalarni hal qilishda yordam berishdan iborat. [2]

2020-yil 7-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori imzolangan edi. Qaror asosida matematika fani bo'yicha o'quv dasturlari qayta ko'rib chiqildi hamda darsliklar yaratildi. [1] Ushbu boshlang'ich sinf matematika darsliklarida berilgan iqtisodiy masalalarning salmog'i ham, sifati ham yuqori darajada. Ular o'quvchilarda dunyoqarashni o'stirishga, yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishga yordam beradi. Quyidagi masalalarni olaylik:

1) O'tgan oyning boshida bir dollar 10 540 so'm edi. Hozir bir dollar 10 970 so'mga teng. Agar internet-do'konda buyurtma berilgan ko'ylakning narxi 9 dollar bo'lsa, narx necha so'mga o'zgaradi?

2) Do'konda maktab formasi 428 000 so'm turadi. Uni chegirmada 299 000 so'mga sotib olish mumkin. Agar chegirmalar vaqtida 3 ta forma sotib olinsa, qancha pulni tejash mumkin? [3]

3) Bitta maktab partasini ta'mirlash 118 000 so'mga tushadi. Maktabda 5 ta parta singan. Usta va direktor xarajatlarni taqriban, o'zlaricha hisoblash chiqishdi. Xarajatlarni usta 600 ming so'mga, direktor esa 550 ming so'mga baholadi. Kim ko'p va qancha ko'p xato qildi?

4) Onam kassada elektr va sovuq suv uchun pul to'layapti. U elektr uchun 23 560 so'm, sovuq suv uchun esa 19 345 so'm to'lashi kerak. Hisobchi onam jami 58 000 so'm to'lashi kerakligini aytdi. U to'g'ri aytdimi yoki adashyaptimi? [4]

Yuqoridagilardan tashqari o'quvchilarga tejamkorlik orqali pul yig'ishni o'rgatish mumkin. O'quvchilar pullarini jamg'arib shaffof idishga solib borishlari kerak bo'ladi. Shaffof idishdan foydalanganda bolalar o'z pullarining o'sib borayotganligini ko'rishadi. Kecha ularda 10 000 so'm bor edi, bugun esa 11 000 so'm va hokazo. Bu usul ancha samara beradi.

O'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berishda ota-onalar bilan hamkorlik qilish ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ko'pchilik oilalar bolalarni faqat moddiy jihatdan ta'minlash yetarli deb o'ylashadi yoki o'zlarida bo'lmagan narsalar ularda bo'lishini xohlashadi. Shu sababli ularning farzandlari yoshligidan isrofgarchilikka, pul bilan muomalada xato qilishga o'rganib qolishadi. Bu esa kelgusida ularning iqtisodiy muammolarga duch kelishlariga va muammolarga yechim topa olmasliklariga olib keladi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



Bunday vaziyatlar yuzaga kelmasligi uchun o'qituvchi ota-onalarga quyidagilarni maslahat berishi mumkin:

1. Farzandingizga hech qachon pulni shunchaki bermang.

Bolalarga shunchaki pul berish ularni tekinxo'r qilib qo'yadi. Aksincha, yoshlikdan ularga pulning biror mehnat evaziga kelishini singdirish lozim. Masalan, axlatni tashlab kelish, xonani tozalash, idishlarni yuvish kabi farzandingiz qo'lidan keladigan oddiy yumushlarni bajartiring va bunga haq to'lang. Shunda ular ham mehnatlari ortidan kelgan pulga boshqacha munosabatda bo'ladilar.

2. Farzandingizga buyumlarni u xohlagani uchun olib bermang.

Insonlar, ko'pincha, istaklariga tayanib to'satdan xaridlarni amalga oshiradilar va keyin bundan afsuslanadilar. Bu holat katta yoshli insonlarda ham ko'p kuzatiladi. Ushbu vaziyatni yoshlikda orttirilgan yomon odat deya izohlash mumkin. Bolalar do'kon yoki bozor bo'ylab yurganlarida chiroyli narsalarni ko'rib xarxasha qilishga tushadilar. Ota-onalar esa ularni ovutish maqsadida tezda farzandlari so'ragan narsani xarid qilishadi. Ammo bu noto'g'ri. Bolalarning injiqliklariga qaramasdan faqat ular uchun zarur va foydali bo'lgan narsalarni xarid qilish lozim. Kiyimlarni chiroyli bo'lganligi uchun emas, qulay bo'lganligi uchun sotib olishga o'rgangan bola ulg'ayganida ham shu qoidaga amal qiladi.

3. Pulni behudaga emas, yaxshilik yo'lida sarflashni o'rgating.

Bolalarni yoshlikdan saxovatli bo'lishga o'rgatish lozim. Kimgadir yordam berishning qanchalik ahamiyatli ekanligini anglagan bola, tejamkorlikka odatlanadi. O'z buyumlaridan boshqalar foydalanishi mumkin ekanligini hisobga olib ularga ehtiyotkorona munosabatda bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich matematika kursida muhim o'rin egallagan iqtisodiy masalalar o'quvchilar savodxonligini oshirishda juda katta ahamiyatga ega. Bolalarga iqtisodiy masalalarni o'rgatish ularga yangiliklarda ko'rgan iqtisodiy voqealarni to'g'ri talqin qilishga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matematika darslarida o'rgatiladigan iqtisodiy masalalar kelgusida ularning iqtisodiyot fanini o'zlashtirishlari uchun poydevor vazifasini o'taydi. Matematika darslarida iqtisodiy masalalarni hal qilishga o'rgatish kelajakda oila byudjetini yanada oqilona rejalashtirishga yordam beradi. Asosiysi, iqtisodiy fikrlashni rivojlantirish: muammoni ko'rish, uni tahlil qilish va oqilona qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Ular o'quvchilarda mantiqiy hamda tanqidiy fikrlash, analiz va sintez qilish, umumlashtirish, qaralayotgan hodisalar orasidagi bog'lanishlarni ochib berish malakasini o'stiruvchi asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi "Matematika sohasida ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



2. Jumayev M.E., Tadjiyeva Z. G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. Darslik. Toshkent – 2005. 11-bet.
3. Repyova I. V. Matematika. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik I-II qismlar. – Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023.
4. Repyova I. V. Matematika. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik II qism. – Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023.
5. Munisa Aminovna Davlatova. Iqtisodiy va statistik masalalarni yechishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini shakllantirish. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3 | Issue 12 | 2022. 310-bet.